



SPECIFIC FEATURES OF THE ISSUE OF INTERCULTURAL COMMUNICATION IN SOCIETY

Mokhira Azizova

senior lecturer

Tashkent University of Information Technologies named after Muhammad al-Khwarizmi
Tashkent, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: Theory, philosophy, hermeneutics, culture, communication, intercultural communication, personal development, international communication.

Received: 22.03.25

Accepted: 24.03.25

Published: 26.03.25

Abstract: This article presents scientific perspectives on the problems of communication and dialogue in society. Intercultural communication in society is analyzed theoretically, philosophically and hermeneutically, and intercultural communication is considered. The need to understand, explain and interpret "culture" as a means of communication, as well as the processes of subjective interpretation of intercultural communication are scientifically analyzed.

JAMIYATDA MADANIYATLARARO MULOQOT MASALASINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Moxira Azizova

katta o'qituvchi

Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
Toshkent, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: Nazariya, falsafa, germenevtika, madaniyat, muloqot, madaniyatlararo muloqot, shaxsiy yetuklik, xalqaro muloqot.

Annotatsiya: Ushbu maqolada jamiyatda mavjud aloqa va muloqot muammolari bo'yicha ilmiy nuqtai nazarlar ilgari surilgan. Jamiyatda madaniyatlararo muloqot nazariy, falsafiy va germenevtik jihatdan tahlil qilinib, madaniyatlararo aloqalarni ko'rib chiqilgan. "Madaniyat"ni muloqot vositasi sifatida tushunish, tushuntirish va izohlash kerakligi, shuningdek, madaniyatlararo aloqani sub'ektiv tarzda talqin qilish jarayonlari ilmiy tahlil qilingan.

ОСОБЕННОСТИ ПРОБЛЕМЫ МЕЖКУЛЬТУРНОЙ КОММУНИКАЦИИ В ОБЩЕСТВЕ

Мохира Азизова

Старший преподаватель

*Ташкентский университет информационных технологий имени Мухаммада ал-Хоразмий
Ташкент, Узбекистан*

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Теория, философия, герменевтика, культура, коммуникация, межкультурная коммуникация, личностное развитие, международная коммуникация.

Аннотация: В статье представлены научные взгляды на проблемы коммуникации и диалога в обществе. Межкультурный диалог в обществе анализируется теоретически, философски и герменевтически, изучаются межкультурные связи. Научно проанализирована необходимость понимания, объяснения и интерпретации «культуры» как средства коммуникации, а также процессы субъективной интерпретации межкультурной коммуникации.

KIRISH

Insoniyat muayyan geografik makonni egallagan alohida, xilma-xil mahalliy jamoalar majmuasidan tashkil topgan bo‘lib, ular o‘rtasidagi o‘zaro kommunikatsiyalarning tarixiy taraqqiyoti o‘z navbatida jahon tarixini vujudga keltira borgan. Shuni alohida ta’kidlash lozimki, bu ma’nodagi kommunikatsiya nafaqat shunchaki aloqa, balki sinergetik effektlarni yuzaga keltiradigan olamlar o‘rtasidagi murakkab o‘zaro ta’sirni ham anglatadi.

Falsafiy tadqiqotlarda madaniyatlارaro muloqot tushunchasi ontologik va gnoseologik ma’nolarda talqin etiladi. Xususan, uning tuzilmaviy elementi bo‘lgan munosabat kategoriyasи sotsiumning tarkibiy qismlarini o‘zaro bog‘lab uning yaxlitligini tashkil etuvchi aloqa vositasи sifatida qaraladi.

Insonning ijtimoiy-madaniy tabiatи, xususan, unga o‘ziga o‘xshaganlar bilan aloqaga kirishish, hayotiy tajribalari, his-tuyg‘ulari, fikrlari bilan bo‘lishish imkonini beruvchi madaniy fenomenlarni interiorizatsiyalash jarayonidagi o‘z-o‘zini takomillashtirish qobiliyatida uni madaniyatlарaro ta’sirga undovchi turtki mavjud.

Xalqaro muloqot ko‘p qirrali xarakter kasb etib, ular savdo, xalqaro siyosat singari ko‘plab sohalarda amal qiladi[1]. Uning ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy aspektlardan tashqari, (millatlararo nikohlar, xalqlar va irqlar aralashuvi) kabilarni nazarda tutuvchi demografik aspekti ham mavjud. Madaniyat sohasidagi xalqaro muloqot esa qadim zamonlardayoq o‘rnatilib, to hozirgacha davom etayotgan, butun insoniyat tarixini qamrab oluvchi, milliy hamda jahon madaniyatining eng muhim yo‘nalishlaridan biriga aylangan madaniy aloqa va bog‘lanishlar shaklida yuzaga keladi.

Jahon madaniy aloqlari, bir tomondan, umumjahon tarixiy jarayonining barcha jihatlari hamda shakllari bilan uzviy bog‘langan bo‘lsa, boshqa tomondan, ular o‘ziga xos sifat va xususiyatlarga ega. Ular kishilik jamiyat tarixiy taraqqiyotining ajralmas qismi sifatida jahon madaniy aloqalarini yagona, ob’ektiv zaruriy va barqaror rivojlanuvchi jarayon ko‘rinishida tasavvur qilish imkonini beruvchi o‘z qonuniyatlariga ega.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Ma’naviy ijod, shaxsiy yetuklik, yuqori darajadagi muloqot, ta’lim amaliyoti, jamiyat ishlab chiqarish kuchlarining o‘sishi kabilar madaniyatlararo aloqalar va madaniyatlar muloqoti tufayli takomillashib bordi[2].

Yuqoridagilarni umumlashtirgan holda shuni aytish mumkinki, xalqaro madaniy aloqalar umumjahon tarixiy taraqqiyot jarayonining ajralmas qismi sanaladi. Ular madaniyatlarning sinteziga – tashqaridan kelgan ma’lum hodisalarning madaniy-retseptorlarini o‘zlashtirish shaklida, ularning qayta ko‘rib chiqilishi, yangi madaniy muhitga kiritilishi va boshqa madaniyatlar ta’siri ostida o‘zlarinikini ishlab chiqish jarayoniga olib keladi. Madaniy sintez qabul qiluvchi madaniyatlarning rivojlanishi va umuman, madaniyatlarning boyib borishiga turki beradi. Ijtimoiy ahamiyatga molik muammolarni hal qilish jarayonida ijtimoiy-kommunikatsion mexanizmni yaratish, qo‘llab-quvvatlash va rivojlantirish, o‘zaro tushunish va muloqot asosida hamkorlik qilish yo‘llarini izlash madaniy va ijtimoiy dinamikaning muhim omillari hisoblanadi.

Ijtimoiy-gumanitar fan sohalariga oid tadqiqodlarda “Madaniy aloqa” tushunchasining mohiyatini ochib berishga qaratilgan xilma-xil yondashuvlar mayjud bo‘lib, uning aniq bir ma’noli ta’rifini uchratish qiyin[3]. Ko‘pincha, odatda, madaniy aloqalar deganda san’at, adabiyot, fan hamda aksilogik sohalardagi delegatsiyalar almashinuvi va shu boradagi hamkorlik tushuniladi.

Agar madaniyat kategoriyasi keng ma’noda moddiy, ijtimoiy va ma’naviy shakllardagi o‘z-o‘zini rivojlantiruvchi tizim sifatida tushunilsa, xalqlar o‘rtasidagi madaniy aloqalar turli sohalardagi moddiy va ma’naviy madaniyat yutuqlarining almashinuvi, qadriyatlarning o‘zaro muloqoti kabi xususiyatlarni qamrab oluvchi mazmunga ega tushuncha ekanligi ma’lum bo‘ladi.

Turli madaniyatlar o‘rtasidagi aloqalar sub’ekt-ob’ekt – monologik va sub’ekt-sub’ekt – dialogik tamoyil asosida qurilishi mumkin[4]. Birinchi holatdagi madaniyat, o‘tmishdan yoki hozirgi kunda, foydali bo‘lgan madaniyatning boshqa turiga mansubdir (oxirgi holat bu fath qilingan odamlarning ibodatxonasini otxonaga aylantirilishi, bronza haykallarini eritib qurol-aslahaga aylantirilishi yoki boshqa madaniyat yodgorliklarini to‘g‘ridan-to‘g‘ri yo‘q qilish, masalan, Janubiy Amerikadagi konkistadorlarning harakatlari kabi), yoki kognitiv tarzda o‘rganish mavzusiga oid bo‘lishi mumkin.

Ikkinchi holatdagi madaniyatga teng huquqliligi, teng qiymatliligi, barcha farqlari bilan, qiziqarliligi, kerakliligi, istalganligi bilan, o‘zining boshqalarga o‘xshamasligi, o‘ziga xosligi bilan

munosabatda bo‘lishdir[5]. Ayni shu holatda, madaniyatlar o‘rtasidagi muloqot deb ataladigan munosabatlar paydo bo‘ladi.

NATIJALAR

Shunday madaniyat turlari borki, ular boshqa madaniyatlar bilan muloqotni nihoyatda cheklaydi. Ular boshqa madaniyatlar bilan aloqa qilishni istamaydigan egotsentrik, xudbin, narsis, yopiq fikrli madaniyatlar bo‘lib, ular “nomukammal”, “past”, “madaniyatsiz” hisoblanadi. Dialogga bir madaniyatning “norasolik kompleksi” boshqasiga nisbatan ta’sir qiladi, bu o‘z-o‘zini tanib olishdan, o‘zidan voz kechishga, boshqa madaniyatga ixtiyoriy ravishda bo‘ysunishga olib keladi (anglomaniya, frankomiya, germanofillik yoki qadimiy davrga taqlid qilish, o‘rtasrlarga o‘xhashlik, zamonaviy davrda Yevropa madaniyatida Uyg‘onish davri kabi holatlar).

Madaniyatlar o‘rtasida muloqot har doim mavjud bo‘lib kelgan. XX asrda madaniy aloqalarni rivojlantirish bilan birga u ikki tendensiya ziddiyatida ifoda topgan qarama-qarshilik xarakteriga ega bo‘ldi. Bir tomonidan, har bir xalqning madaniyati, o‘zining ma’naviy noyobligini belgilab, o‘z ijodiy kuch-qudrati va qobiliyatlarini ifodalaydigan, ayni paytda butun insoniyatning madaniy boyligi muloqot jarayonlari va texnologiyalarini jadal rivojlanishi bilan bir qatorda turmoqda. Turli xil shakllarga ega bo‘lgan madaniyatlar muloqoti xalqlar o‘rtasida o‘zaro tushunishni ko‘proq ta’minlaydi va ularning ma’naviy noyobligini ochib beradi.

Madaniyatlar o‘rtasidagi muloqot har doim ham o‘zaro ta’sir ko‘rsatuvchi sub’ektlar uchun ijobjiy bo‘lavermaydi. Bu muloqot raqobat, konkurensiya, bir tomonlama o‘z manfaatini ta’qib qilish, xukmronlikka intilishga urinish kabi ko‘rinishlarni olishi mumkin. Tarixdan ma’lumki, bu singari muloqotlar natijasi madaniyatni boyishiga emas, aksincha qabul qiluvchi madaniyatning kuchsizlanishiga olib kelgan. Bunga XIX asrda yevropaliklarning hujumi ostida deyarli yo‘q bo‘lib ketgan Okeaniya xalqlarining taqdiri guvohlik berishi mumkin. Bu kabi tarixiy faktlarning turliligi madaniy aloqalarning millatlar va insoniyat hayotidagi roliga kengroq qarashga undaydi.

Asl muloqot o‘zligiga egalikni, o‘zaro ta’sirga kirishgan madaniyatlarning autentikligini taklif qiladi. Madaniy organizmning bu xususiyati ikki nuqtai nazardan ko‘rib chiqiladi: ontologik o‘xhashlik (madaniy qadriyatlar, mezonlar, hayot tarzi va hokazolarning tarixiy uzlusizligi) va madaniy mavjudlik realliklari bilan madaniy o‘zligini anglashning mutanosibligi. Mavjud emperik ma’noda autentik madaniyat – bu o‘z tarixidan ajralmagan holda, o‘tmish va kelajakni birlashtiruvchi, milliy xarakter va psixologiya tabiatini ochib beruvchi va aks etuvchi madaniyat hisoblanadi[6].

Sotsio-madaniy kommunikatsiyaning tahliliga bunday yondashish to‘laqonli to‘g‘ri hisoblanadi. Zero, madaniyat shunchaki hodisa emas, muayyan makon va zamonda mavjud bo‘ladigan voqelikdir[7]. Yaxlit ma’naviy tizim sifatida u bugunni ham, o‘tmishni ham qamrab oladigan yirik tarixiy zamonda amal qiladi. O‘tmish bilan madaniy muloqot esa eski g‘oyalar va

muammolarni ijtimoiy ongni yuksaltirish yo‘li orqali bugungi kun nuqtai nazaridan tushunish hamda qayta talqin etish vositasi hisoblanadi.

MUHOKAMA

Madaniyatlararo kommunikatsiyani tahlil etish bilan bog‘liq falsafiy-germenivtik muammolar doirasi nafaqat chuqur nazariy yondashuvlarni, shuningdek, madaniyatlararo aloqalarni intensifikatsiyalash jarayonida namoyon bo‘ladigan ziddiyatlarni ham taqazo qiladi.

Epestimologik (ilmiy-nazariy) sohadagi inqiroz uning umumiy asoslari buzilganligi, haqiqiylik va chinlik mezonlarining yo‘qolganligi bilan izohlanadi[8]. Soddarоq qilib ayni inqirozni paradigma inqirozi deb atash mumkin. Ob’ekt, reallik, olam, bilim kabi tushuncha va kategoriylar tobora noma'lumlik kasb etib boradi. XVI-XVII asrlarda shakllangan, tabiiy-ilmiy soha hamda texnogen sivilizatsiya doirasida muvafaqqiyatli qo‘llanilib kelinayotgan haqiqat mezonlari va ob’ektivlik tushunchalariga bugungi kunga kelib, ularga istiqboldagi taraqqiyotga qo‘yilgan g‘ov sifatida qaralmoqda.

Madaniy-semiotik sohadagi inqiroz fundamental asoslari qadimgi Yunon sivilizatsiyasiga borib taqaluvchi, shuningdek, Yangi davr mutafakkirlari tomonidan yuqori darajada e’tirof etilgan olam manzarasining buzilganligi yoki uning keskin o‘zgarib ketganligi bilan izohlanmoqda. Olamni qabullashning ayni shakli inson va tabiatni o‘z ichiga qamrab olgan holda uni inson va fizik dunyoga bog‘liq bo‘lmagan tarzda ob’ektiv mavjud deb qarab, simvolik borliq shakllarining ahamiyatini to‘g‘ri baholamaydi.

XULOSA

Kishilik jamiyati taraqqiyotining informatsion bosqichiga o‘tilishi ham jonli madaniy muloqot uchun yangicha dunyoqarash asoslarini izlab topish shuningdek, madaniyatlararo kommunikatsiyaning samarador texnologiyalari-ni ishlab chiqish zaruriyatini kuchayishiga olib kelmoqda. Tabiiyki, bu bilan bog‘liq ravishda qator kulturologik muammolari ham paydo bo‘la boshlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Флиер А.Я. Массовая культура и ее социальные функции // ОНС. 2018. № 6. С.144- 146
2. Ценность. // Новейший философский словарь.- Мин.: Изд.В.М.Скакун, 2008.- С.798.
3. Кенжаева Д. Маданиятнинг тарбиявий функцияси ва унинг ижтимоий-фалсафий таҳлили. Фалсафа фанлари номзоди дис.автореф. – Т.: 1999. – 21 б.
4. Б.Тўраев. Танланган асарлар: Жилд II: Ижтимоий фалсафа, социология, миллий ғоя ва публицистика. – Т.: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон миллий кутабхонаси нашриёти, 2015. – Б. 248-249.
5. Мадраҳимова Ф. Глобаллашув ва “оммавий маданият”. – Тошкент: Чашма прнт. 2013. – Б. 180.

6. Сафаров Б.Ш. Миллий туризм хизматлар бозорини инновацион ривожлантиришнинг методологик асослари. // Монография. - Тошкент: Фан ва технология, 2016. – Б. 184.
7. Тўйчиев Б. Жамиятни демократлаштириш ва сиёсий маданият. Монография. – Тошкент. Фан, 2011. – Б. 284.
8. Holzner, M. (2011). Tourism and economic development: The beach disease? *TourismManagement*, 32, pp. 922-933.
9. Qaxxarova, M., & Absattorov, B. M. (2020). Evolution of views on ethics, ethical criteria and ethical standards. *The Light of Islam*, 1, 110-115.
10. Absattarov, B. M. (2019). Evolution Of Views On Ethics, Ethical Criteria And Ethical Standards. In *НОВАЯ НАУКА: СОВРЕМЕННОЕ СОСТОЯНИЕ И ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ* (pp. 135-141).
11. Mamarasulovich, A. B. (2021). Improvement and Development of Ethical Criteria and Norms. *European Journal of Humanities and Educational Advancements*, 2(10), 41-45.
12. Mamarasulovich, A. B., & Ismoil o‘g‘li, T. M. (2023). GENETIC MARKERS AND EVOLUTIONARY MANIFESTATIONS OF THE “NAFS” CONCEPT. *World Bulletin of Social Sciences*, 29, 16-19.
13. Mamarasulovich, A. B., & Ismoil o‘g‘li, T. M. (2023). GENETIC MARKERS AND EVOLUTIONARY MANIFESTATIONS OF THE “NAFS” CONCEPT. *World Bulletin of Social Sciences*, 29, 16-19.
14. Qahhorova, M. (2021). SOCIO-PHILOSOPHICAL FOUNDATIONS OF THE SOCIO-RELIGIOUS SPIRITUAL AND MORAL ENVIRONMENT. *Theoretical & Applied Science*, (6), 135-138.
15. Каххарова, М. М. (2018). Этическое наследие мыслителей востока. *Актуальные проблемы современной науки*, (5), 47-52.
16. Kakhkharova, M. M. (2019). СОЦИАЛЬНО-ФИЛОСОФСКИЕ ОСНОВЫ ФОРМИРОВАНИЯ ДУХОВНО-НРАВСТВЕННОЙ ОБЩЕСТВЕННОЙ СРЕДЫ. *Theoretical & Applied Science*, (10), 682-687.
17. Sanaqulov, A. N. Prospective Directions of Effective Use of Virtual Technologies in Increasing the Power of Youth. *JournalNX*, 897-903.
18. Sanaqulov, A. (2022). FEATURES OF PREVENTING METAMORPHOSIS OF SPIRITUAL AND MORAL VALUES IN THE VIRTUALIZATION OF PUBLIC LIFE. *International Journal of Early Childhood Special Education (INT-JECS)*.
19. Nazarovich, S. A., & Olimjanovich, X. A. (2022). FEATURES OF PREVENTING METAMORPHOSIS OF SPIRITUAL AND MORAL VALUES IN THE VIRTUALIZATION OF PUBLIC LIFE. *International Journal of Early Childhood Special Education*, 14(7).
20. Mamarasulovich, A. B. (2021). Improvement and Development of Ethical Criteria and Norms. *European Journal of Humanities and Educational Advancements*, 2(10), 41-45.